

**HOZIRGI KUNDA OILAVIY AJRIMLARNI SABABLARI VA ULARNI
BARTARAF ETISH BORASIDA OLIB BORILAYOTGAN CHORA TADBIRLAR
SAMARASI**

Ismoilov Sherzodbek Dilshodovich

*Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti
kafedrasi o'qituvchisi p.f.f.d.(PhD)*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda oilaviy ajrimlarni sabablari va ularni bartaraf etish borasida olib borilayotgan chora tadbirlar va oilaviy ajrimlarni bartaraf etish uchun Oila institutlari tegishli barcha tashkilotlar xotin-qizlar qo'mitalarini olib borayotgan ishlari borasida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *oila, xotin-qizlar, ajrimlar, oila instituti, muammolar, axborot, internet, ijtimoiy tarmoqlar, qadriyat, an'analar, urf-odatlar, manaviyat.*

**ПРИВОДЯТСЯ РЕЗУЛЬТАТЫ ПРИНИМАЕМЫХ В НАСТОЯЩЕЕ
ВРЕМЯ МЕР ПО УСТРАНЕНИЮ ПРИЧИН СЕМЕЙНЫХ РАЗВОДОВ И ИХ
ЛИКВИДАЦИИ.**

Аннотация: *В данной статье рассматриваются причины семейных разводов и меры, принимаемые по их устранению, а также работа женских комитетов всех профильных организаций Институтов семьи по ликвидации семейных разводов.*

Ключевые слова: *семья, женщины, решения, институт семьи, проблемы, информация, Интернет, социальные сети, ценности, традиции, обычаи, духовность.*

**THE RESULTS OF MEASURES CURRENTLY BEING TAKEN ON THE
CAUSES OF FAMILY DIVORCES AND THEIR ELIMINATION.**

Annotation; *This article discusses the causes of family divorces and the measures taken to eliminate them, as well as the work of women's committees of all relevant organizations of Family Institutes to eliminate family divorces.*

Key words: *family, women, decisions, family institution, problems, information, Internet, social networks, values, traditions, customs, spirituality.*

Globalashuv davri, axborot asri, internet, ijtimoiy tarmoqlar rivoji, ommaviy madaniyatning shafqatsiz xuruji, bunga qo'shimcha ravishda mahalliy matbuotlarimizda, ayniqsa, telekanallarimizda kundalik hayotimiz forovonligini bir tomonlama o'ta bo'rttirib reklama qilinayotganligi, masalan: go'zal hayot, farovon turmush, "obod qishloq", "obod mahalla", "olamishumul "siti"lar" qurilishi reklamalari aholining yashashga ehtirosini, orzu havasini shu qadar oshirmoqdaki, bunday hayotga erishish, ayniqsa, namunali uylar, arzonlashtirilgan uylar, kottejlar, yoshlar uyi, harbiylarga uylar, qolaversa, ularning bepul, tekin berilayotganligi to'g'risidagi mehr-saxovatga to'la eshittirishlar matbuot monopoliyasi darajasiga chiqdi. Ammo, afsuski, bunday shohona hayotga erishish uchun orzuning o'zi

yetmaydi. Buning uchun oilaviy mablag‘ kerak, oila a’zolarining mablag‘ topish manbai – ishchi o‘rinlari kerak. Ishlay desa ish yo‘q, uy olay desa pul yo‘q. Oilaviy tadbirkor bo‘lish, o‘ziga o‘zi ish joyi yaratish jamiyatimiz fuqarolarining deyarli aksariyat qismining qo‘lidan kelavermaydi, bu ularning aybi yoki kamchiligi ham emas. Tomorqadan topganiga tirikchiligi o‘tishi mumkin, orzu-havasga hech nima qolmaydi. Ijobiy ma’nodagi ana shunday orzu-havaslar sababli, oilalarimizdagi yetishmovchiliklardan kelishmovchiliklar kelib chiqmoqda. Natijada oilaning eng uddaburro a’zolari, kim bo‘lishidan qat’iy nazar, ermi, xotinmi, o‘g‘ilmi, qizmi pul topish uchun xorijga chiqib ketmoqdalar. Aksariyat oilalarning buzilib ketishiga asosan ana shu fakt sabab bo‘lmoqda. Xo‘s, biz ushbu muammolarni bartaraf qilish uchun qanday choralar ko‘ryapmiz? Minglab savollarga javob izlaymiz va yana o‘sha bitta javobni topamiz – ishsizlikni tugatish!

Oilaviy ajrimlarni bartaraf etish borasida “Oila instituti”ga tegishli barcha tashkilotlar, xotin-qizlar qo‘mitalari, mahalla instituti mutasaddilar, mutaxassislarining kechayu-kunduz yelib-yugurishlari samara bermayapti, jamoatchilik vakillarining nasihatlari bir pul. Men bu fikrlarimni barcha oilalarga nisbatan aytganim yo‘q, agar ular umumiylar sonining o‘n foizini tashkil etgan taqdirda ham bu biz uchun fojia, bir foizi ham, bir donasi ham ko‘plik qiladi. Fuqarolik sudlari ajrimlarni kamaytirish, er-xotinni yarashtirish maqsadida nikohni bekor qilish da‘vo arizalarini hal qilishni yillab cho‘zmokdalar. Natijada yigitlarimiz noqonuniy uylanishga, mahalla-kuydan yashirinib nikoh o‘kitishga majbur bo‘lmoqda. Biz ularni ko‘r-ko‘rona ta’qibga olyapmiz, muqaddas Qur’on oyatlarini, imomlarimizni tahqirlayapmiz, jarimaga tortayapmiz, baribir natija bo‘lmayapti. Nima uchun? Yana minglab savollarga javob izlaymiz, javob – oilani ish bilan ta’minalash, “Har bir oila tadbirkor” davlat dasturini to‘liq amalga oshirilishini ta’minalash!

“Oila” markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, doktorlik ishlarini aytmaysizmi, barchasi oilaning sog‘lom tur mush tarzini shakllantirish, ajrimlarni oldini olishga bag‘ishlanmoqda. Tadbirlar, seminarlar, quriltoylar, namunali oila tanlovlari va hokazo... Nazarimda, oila va xotin-qizlar masalasidagi butun bir tizim o‘z qobig‘iga o‘zi o‘ralashib qolgandek, vaqtimiz tadbirlardan, taqdirlashdan ortmaydi. Hujjat ishlarini aytmaysizmi, aslida, ish reja va choraklik, yillik hisobotlar taqdim etilishi yetarli emasdek, unga qo‘shimcha har bir muammoni, uchrashuv va suhabatni bayonlashtirish, suratini ilova qilish, ayniqsa, yog‘ilib kelayotgan “portal” xatlari, xizmat tekshiruvlari, kamiga ijtimoiy tarmoqlar xabarlariga javob berish, xullas, faoliyatni amalda ko‘rsatishdan ko‘ra, qog‘ozda ko‘rsatish mashaqqat bo‘lmoqda. Qog‘ozbozlikning avj olishi – bu ishonchszlik, ko‘zbo‘yamachilikning belgisidir va xodimlarning asosiy ish vaqtini yuqoriga chiroli xabar tayyorlash, qog‘ozbozlik bilan o‘tmoida. Ish faoliyatimdan kelib chiqib mulohaza qilamanki, hanuzgacha aholi ichiga chuqur kirib borolganimiz yo‘q, oilalarga, ayniqsa, notinch, noimkon oilalarga muammo yuz bergach yetib bormoqdamiz. 5-10 minglab aholi yashayotgan mahallada to‘rtta xodim va bitta mutaxassis ishlaydi, joriy yilda sektor xodimlari mahallaning tezkor yordamchisiga aylandi, uyma-uy yurish, xonadonma-xonodon muammolarni aniqlash rasmiylashtirilgan so‘rovnomalalar asosida birma-bir ko‘rib chiqildi. Muammoni qanday usulda, kim tomonidan o‘rganilishidan qat’iy nazar, oilaviy muammolar baribir moddiy mablag‘ga borib taqalmoqda. So‘rovnomalardagi muammolarning asosiy qismi ishsizlik muammosi! Xalqimiz mehnatkash xalq, ish bo‘lsa 24 soat ishlaydi, pul topadi, uyni qarzga emas, davlatdan o‘z puliga sotib oladi, uyini o‘zi

ta'mirlaydi, bolasini o'zi boqadi. Xorijda mute bo'lib ishlagandan ko'ra, oilasining bag'rida g'oz bo'lib ishlaganiga nima yetsin, solig'i vatanga, foydasi o'ziga beminnat yashash qanday yaxshi. Bu gaplarni bugungi kunda qishloqlardagi aholimiz yaxshi tushunadi, ammo, na iloj, kun ko'rishdan tashqari orzu-havas bor. Muammo – muammmoni tug'averadi... Yana ish... ish.? Shuning uchun farovon hayotni targ'ib qiluvchi, xo'jako'rsinga har kun o'tkaziladigan majlislar, tadbirlar, ayniqsa mablag' talab qiladigan tanlovlardan, unvonlar keskin qisqartirilmog'i lozim deb hisoblayman. Oilalar bilan rasmiyatichiliksiz, hisobot uchun emas, sun'iy, teatr ko'rinishdagi suratlarga tushirmasdan, jonli, tabiiy suhbatlar, uchrashuvlar utkazish, xamkorlikda joyning o'zida muammolarning yechimlarini topmoq lozim.

Ba'zan, barcha fikrlarimning aksini o'ylayman: Agar oilaviy muammolarga oid butun bir tizim, bosh vazir o'rinxbosaridan boshlab, mahalla mutaxassisigacha bo'lgan gender halqasi, xotin-qizlar tashkiloti bo'lmasa-chi, ushbu oilaviy munosabatlaridan norozi kimsalar kimga suyanadilar, qaysi eshikka boradilar erini, xotinini, yoki, kelini, kuyovini kimga yomonlaydilar? Axir, ota-bobolarimiz oilasining muqaddasligini, mustahkamligini saqlab qolish uchun tanlovlardan, musobaqalar o'tkazmaganlar-ku, "namunali oila" degan rasmiy yorliqlari bo'limgan. Oila sirlarini, ayblarini ichkarida tuzatib, yutuqlarini farzandlariga, shogirdlariga o'rgatganlar. Faqatgina jinoyatchilarni podsholarga, qozilarga olib borganlar, oilaviy muammolarning yechiminiadolat tarozisida, muqaddas Qur'on oyatlari asosida oila boshliqlari, oqsoqollar hal etishgan. Chunki, har qanday holda ham oilaning ahvoliga oila a'zolarining rahmi keladi, qarindoshlarning ichi kuyadi va ular adolatli yechim topa oladilar, mahalla, "uchastkavoy", yoki sud emas. Bugunchi, istibdod yillardan boshlab yuz yillar davomida gender tengligi uchun kurash deb, ayollarimizga ko'proq "dars" berib, o'qitib ko'yidik shekilli, ajrim uchun ariza berayotganlarning asosiy qismini ayollar tashkil etmoqda. Birgina fuqarolik sudlarida emas, jinoyatchilik sudlarida ham oilaviy muammolar ko'rib chiqilmoqda. Ayollarimiz eriga, oila a'zolariga, qarindosh-urug'lariga emas, davlat organlariga ishonib, suyanib qoldilar. Oilada adolatni faqat er va xotin, so'ng qarindoshlar doimiy o'rnata oladilar, boshqa kuchlarning ta'siri vaqtinchalik, bu asrlab qonimizga singib ketgan milliy mentalitetimizning temir qonuni. Ikki oilani bir-biriga namuna qilish, ko'pchilik oilalarni kamshitilishiga olib kelmoqda. Ibrat, tarbiya olish, havas qilish uchun telekanallarimizdagijitimoiy-maishiy ko'rsatuvlarning o'zi yetarli.

Oiladagi zo'ravonliklarga qarshi kurash, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish choralarini belgilaganimiz sari yana muammolar kelib chiqmoqda. Kelinlarimiz arazlab er uyidan chiqsa, ota uyiga borardilar, hozir ularga "qulaylik" yaratish uchun har bir tumanda ijtimoiy moslashuv uylari tashkil etildi. Respublikamizda 165 ta ijtimoiy moslashuv markazlari tashkil etilib, ularga yil davomida 5.468 nafar xotin-qizlar murojaat etgan. Demak, uysiz qolgan, quvilgan, yordamga muhtoj ayollar bolalari bilan ushbu uylarda yashab turadilar, alimentlarini oladilar, ularning bolalarini bog'chaga, o'zlarini ishga joylash lozim, toki uy bilan ta'minlanmasa yoki eri bilan yarashmasa ularni bu uydan hech kim chiqara olmaydi, uy uchun navbatda turganlarni so'ramasangiz ham bo'ladi.

Keling, shu muammolarni hal etish uchun o'z fikrlarimizni beraylik. Kamchiliklarni ro'kach qilib, rahbarlarni, tashkilotlarni, tizimni, hukumatni ayblashdan oldin, biz ham shu vatanning fuqarosi ekanimizni unutmasligimiz lozim. So'nggi xulosamiz: Jamiatimizning boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan oilalarimizda bir-biriga bog'liq bo'lgan ikkita muammo paydo

bo'ldi: ishsizlik va ajrimlar. Barchamizga ma'lumki, jamiyatimizning quyi bo'g'inidagi ushbu muammolar bartaraf etilmas ekan, yuqori va bosh bo'g'inning mustahkamligi barqaror bo'lmaydi. Ishsizlikni tugatish, fuqarolarimizni doimiy ish o'rirlari bilan ta'minlash borasida hukumatimiz tegishli barcha tadbirlarni amalga oshirmoqda. Oilaviy ajrimlarning oldini olish bo'yicha, aliment belgilashning qonuniy tomonlari bir bor o'rganilib chiqib, tegishli chora va tadbirlar ko'rilsa maqsadga muvofiqdir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmoni PF-5847 08.10.2019. Manba: www.gov.uz

2.Abdusmatova Sh.S. Burxanova M.B. (2020). Ko'p farzandli ota-onalarni oiladagi munosabatlarining xususiyatlari. Oriental Art and Culture

3. Hayitov O.E. Iqtisodiy psixologiya: O'quv qo'llanma. -T.:TDIU, 2009. - 230 b.

4. G'oziev E., Mamedov K. Kasbiy psixologiya -T.:TDAU - 2008.

5. Karimova V.M., Hayitov O.E., Djalalova S.M. Boshqaruv psixologiyasi. O'quv qo'llanma. -T.:«Fan vatexnologiya» nashriyoti, 2008. - 208 b.

6. Dilshodovich, I. S. (2022). UMUM O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'G SOSLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 775-779.

7.Dilshodovich, I. S. (2022). TALABALARDA FAMILISTIK KOMPETENSIYANING SHAKLLANTIRISHNING XUQUQIY ASOSI SIFATIDA. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 1210-1215.

8.Dilshodovich, I. S. (2023). TALABALARING FAMILISTIK KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMINI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 874-879.

9.Dilshodovich, I. S. (2022). TALABALARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA MILLIY URF-ODAT VA AN'ANALARDAN FOYDALANISH. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 476-479.

10.Dilshodovich, I. S. (2022). OF PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LIFE CONTENT AND LEPROSY. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(2), 117-123.

11.Dilshodovich, I. S. (2023). DIDACTIC POSSIBILITIES OF FORMATION OF FAMILIAR COMPETENCE IN ADOLESCENT BOYS. European journal of education and applied psychology, (1), 3-6.

12.Tuychieva, I. I., & Ismailov, S. D. (2022). Formation Of Familistic Competence In Adolescent Boys. Journal of Positive School Psychology, 6(10), 2021-2024.

13.Dilshodovich, I. S. (2023, October). PRINCIPLES OF THE FORMATION OF COMPETENCY FOR PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LFE. In

INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 2, No. 17, pp. 29-32).

14.Dilshodovich, I. S. (2023, October). TALABALARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK OMIL VA VOSITALARI. In INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 2, No. 13, pp. 96-100).

15.Dilshodovich, I. S. (2023). TALABA-YOSHLARNING FAMILISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMINI. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(32), 198-202.

16.Ismoilov, S. (2023). O'SMIR YOSHDAGI O'G'IL BOLALARINI XAYOTGA TAYYORLASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING TAMOYILLARI. Scientific journal of the Fergana State University, (1), 227-230.

17.Dilshodovich, I. S. (2023). JISMONIY TARBIYA O 'QUVCHILARINI SPORT MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASH. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(30), 731-734.

18.Dilshodovich, I. S. (2023). TALABA-QIZLARNI DARSLAR DAVOMIDA JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH METODIKASI. PEDAGOG, 6(6), 389-393.

19.Dilshodovich, I. S. (2023). TALABALARDA FAMILISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(29), 515-519

20.Байджанов, Б. Х. (2020). Таълим жараёнида илгор хорижий тажрибаларни самарали қўллаш механизмлари. Science and Education, 1(2), 514-519.

21.Baydjanov, B. K. (2021). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF INFORMATION COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. Theoretical & Applied Science, (7), 171-178.

22.Baydjanov, B. K. (2022). Methodology of Pedagogical Science and its Axiological Possibilities. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(10), 352-363.

23.Baydjanov, B. (2021, June). HIGHER EDUCATION PROSPECTS AND ISSUES OF DEVELOPING INFORMATION SECURITY CULTURE AMONG STUDENTS (ON THE EXAMPLE OF FERGANA REGION). In Конференции.

24.Baydjanov, B. (2021, June). HIGHER EDUCATION PROSPECTS AND ISSUES OF DEVELOPING INFORMATION SECURITY CULTURE AMONG STUDENTS (ON THE EXAMPLE OF FERGANA REGION). In Конференции.

25.Baydjanov, B. (2021, March). COMPATIBILITY OF NEW RENAISSANCE PEDAGOGY AND JADID ENLIGHTENERS'VIEWS ON EDUCATION AND INFORMATION SECURITY. In Конференции.

26.Khaitboevich, B. B. (2020). Some features of protection of students from the threat of harmful information in the educational process. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(10), 69-72.

27.Уринова, Н. М., & Байджанов, Б. Х. (2016). Социально-педагогические особенности подготовки будущих учителей к воспитательной работе. Ученый XXI века, (4-2 (17)), 21-24.

28.Baydjanov, B. (2023). BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARNI O 'QUVCHILARDA AXBOROT XAVFSIZLIGI KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHGA TAYYORLASH SAMARADORLIGI. Scientific journal of the Fergana State University, (1), 9-9.

29.Baydjanov, B. (2023). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ФОРМИРОВАНИЮ НАВЫКОВ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ У УЧАЩИХСЯ. Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali, (1), 42-48.

30.Khodjaev, B., & Baydjanov, B. (2022). PEDAGOGICAL BASIS AND PROBLEMS OF PROTECTING STUDENTS FROM THE THREAT OF HARMFUL INFORMATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Scientific journal of the Fergana State University, (1), 55-55.